



## QO'QON XONLIGIDA SAVDO MUNOSABATLARI

**Boqijonova Sarvinozxon Bahromjon qizi**

Namangan davlat universiteti, tarix yo'nalishi

E-mail:boqijonova29@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20539743>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 15-may 2026 yil

Nashr qilindi: 31-may 2026 yil

#### KEY WORDS

*Qo'qon xonligi, savdo-sotiq, diplomatik munosabatlar, karvon savdosi, tashqi siyosat, elchilik aloqalari, Markaziy Osiyo*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Qo'qon xonligining XVIII–XIX asrlardagi savdo-sotiq tizimi va diplomatik munosabatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Unda xonlikning ichki va tashqi savdo aloqalari, karvon yo'llari, bozorlar faoliyati hamda Rossiya imperiyasi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Xitoy (Sin imperiyasi) bilan olib borgan diplomatik aloqalari yoritiladi. Savdo-iqtisodiy manfaatlarining tashqi siyosatga ta'siri va elchilik munosabatlarining xonlik taraqqiyotidagi o'рни ochib beriladi.*

XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyoda siyosiy va iqtisodiy jihatdan markaziy rol o'ynagan Qo'qon xonligi nafaqat hududiy, balki mintaqaviy savdo-sotiq va diplomatik jarayonlarning murakkab tizimini boshqaruvchi yirik markaz sifatida namoyon bo'lgan. Xonlikning strategik geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va Buyuk Ipak yo'li tarmoqlariga yaqinligi uni xalqaro savdo aloqalarida muhim o'yinchiga aylantirgan. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xonlik ichki va tashqi savdo tizimini muntazam va tizimli tarzda rivojlantirib, karvon yo'llari, bozorlardagi savdo faoliyati va shaharlardagi iqtisodiy infrastrukturani mustahkamlash orqali o'z siyosiy-iqtisodiy mavqeini oshirgan. Bundan tashqari, Qo'qon xonligi diplomatik faoliyatini savdo-iqtisodiy manfaatlar bilan uzviy bog'lab, Rossiya imperiyasi, Buxoro va Xiva davlatlari, shuningdek Xitoy (Sin imperiyasi) bilan elchilik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Diplomatik missiyalar, savdo bitimlari va bojxona siyosati xonlikning siyosiy mustaqilligini ta'minlash, ichki iqtisodiy barqarorlikni saqlash hamda mintaqaviy savdo-iqtisodiy pozitsiyasini mustahkamlashda strategik vosita bo'lgan. Shu jihatdan, Qo'qon xonligining savdo-sotiq va diplomatik faoliyatini o'rganish Markaziy Osiyoda davlatlararo munosabatlar, savdo tarmoqlari va mintaqaning iqtisodiy tarixini chuqur tahlil qilishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qo'qon xonligi tashqi savdo aloqalarida Buxoro va Xiva xonliklari alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bu xonliklar o'zaro chegaradosh bo'lishi bilan birga, ularda yashayotgan xalqlar tili, dini, madaniyati va tarixining mushtarakligi o'zaro munosabatlarning muhim omili bo'lib xizmat qilgan. Buxoro va Xivadan tashqari, Qo'qon xonligi Rossiya, qozoq dashtlari, Qoshg'ar, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Hindiston, arab mamlakatlari, Turkiya va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan. Qo'qon xonligi bilan tashqi savdo aloqalariga ega mamlakatlardan biri Hindiston edi. Ikki davlat hududi bir biridan uzoqligiga qaramay, savdo aloqalar o'sib brogan. (1,37)

Qo'qon xonligidan Hindistonga asosan xom ipak, ipak va yarim ipak matolar, quritilgan mevalar, echki momig'i jo'natilgan. Qo'qon xonligidan Buxoro va Qobul orqali Hindistonga ipkalava, xususan, Namangan kalavasi olib borilgan. XIX asr 70-yillarida uning bir pudi naqd 129 rublgacha, 6 oy nasiyaga 133 rublgacha sotilgan. Qo'qon aholisi orasida Hindistondan keltiriladigan indigo, Kashmir ro'mollari, choy va hind matolariga talab katta bo'lgan. Hindistondan keladigan mollarning katta qismini choy tashkil etgan. (2, 51,53,54)

XIX asr o'rtalarida Sharqiy Turkiston bilan Qo'qon xonligi o'rtasida savdo-sotiq aloqalari jadal rivojlangan. Ch. Ch. Valixonov sayyohlarning bergan ma'lumotlariga tayangan holda Sharqiy Turkiston shaharlarini bir-biri bilan bog'laydigan ichki karvon yo'llari hamda Qo'qon xonligi bilan tutashgan qatnov yo'llari to'g'risida yozib qoldirgan. Ch. Ch. Valixonov o'z asarida Koshg'ardan O'shgacha oraliq 315 verstni tashkil qilishi to'g'risida xabar bergan. Shu bilan birga, Koshg'ardan Andijonga olib boruvchi qadimgi yo'l O'zgand orqali o'tganligini e'tirof qiladi. (3,102)

Qo'qon xonligi bilan Ching imperiyasi hukumati o'rtasidagi siyosiy-diplomatik munosabatlar do'stona tusda bo'lmagan. Bunga bir necha omillar sabab bo'lgan. Birinchidan, Qo'qon xonligiga qo'shni bo'lgan Sharqiy Turkistonda 1755-1759-yillarda manjurlar hukmronligi o'rnatilgan. Ikkinchidan, Sharqiy Turkiston masalasida Xitoy hukumati Qo'qon xonligining siyosiy va iqtisodiy qudratini zaiflashtirishga intilgan. Uchinchidan esa, Qo'qon xonligi Sharqiy Turkistonda o'z ta'siri va hokimiyatini o'rnatishga harakat qilgan. Natijada, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha ziddiyatli kechgan. Sharqiy Turkiston ustidan nazorat o'rnatish masalasi Qo'qon xonligi va Ching imperiyasi o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning asosiy sabablaridan biri bo'lib, bu holat mintaqadagi siyosiy vaziyatga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.(4,32)

Qo'qon xonligi Rossiyaning Sharqiy Turkiston va Xitoy bilan olib borgan savdosida muhim vositachilik rolini o'ynagan. Bunga sabab, Xitoy Rossiya bilan bevosita savdo munosabatlarini yo'lga qo'ymagan va Rossiyaga Sharqiy Turkiston bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo aloqalarini o'rnatishga ruxsat bermagan edi. Shu bois Rossiya Sharq mamlakatlari bilan savdo qilishda Qo'qon xonligi orqali harakat qilgan. Qo'qon xonligi orqali Xitoy va Sharqiy Turkistondan Rossiyaning Troitsk shahriga minglab tuyalarda turli mahsulotlar tashilgan. Ular orasida guldor va qog'oz matolar, chinni buyumlar, choy, ipak, ip gazlamalar, shoyi matolar, kumush yombilar, paxta xomashyosi, uzum, o'rik, tariq, gilam hamda boshqa ko'plab mahsulotlar bo'lgan. Qo'qon xonligi Xitoy bilan olib borgan savdo aloqalarida asosan Qoshg'ar va G'ulja shaharlari muhim o'rin egallagan. XIX asrga kelib esa Rossiya Qo'qon xonligining eng yirik va asosiy savdo hamkoriga aylandi. Qo'qondan boshlanadigan savdo yo'llarining biri Toshkent-Turkiston yo'nalishi bo'lib, u Turkistonda bir necha tarmoqlarga bo'linib, Orsk, Troitsk va Tobolsk shaharlariga olib borgan. Ikkinchi yo'l esa Samarqand, Buxoro, Xiva va Aktyubinsk orqali o'tgan. Ushbu savdo yo'llari Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan hamda xonlik iqtisodiyotining rivojlanishida muhim omil bo'lib qolgan.(1,122)

XIX asrning 40-50-yillarida O'rta Osiyo bozorlarida rus va ingliz tovarlari o'rtasida kuchli raqobat yuzaga kelgan. Bu davrda Rossiyadan keltiriladigan mahsulotlar hajmi tobora ortib borgan va ular mahalliy bozorlarda keng tarqala boshlagan. Natijada ingliz tovarlarining bozordagi ulushi kamayib, ular asta-sekin siqib chiqarilgan. Rossiya savdogarlarining faolligi hamda savdo yo'llarining rivojlanishi rus mahsulotlarining O'rta Osiyo bozorlarida ustun mavqega ega bo'lishiga xizmat qilgan. Shu tariqa XIX asr o'rtalariga kelib Rossiya mintaqaning tashqi savdosida yetakchi o'rinlardan birini egalladi. XIX asrning 60-yillaridan boshlab esa yurtimizga keluvchi savdogarlar soni kamayib ketgan. Bunga bir qator omillar sabab bo'lgan. Avvalo, qaroqchilarning ko'payishi savdo karvonlari xavfsizligiga jiddiy tahdid solgan. Bundan

tashqari, savdogarlardan noqonuniy boj va soliqlarning olinishi ularning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, xonliklar o'rtasida tez-tez yuz berib turgan o'zaro urushlar savdo yo'llarining xavfsizligini izdan chiqargan. Natijada savdo-sotiq ishlari sustlashib, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Savdo munosabatlari bilan bog'liq muammolar, shuningdek, Qo'qon xonligi va Rossiya o'rtasidagi chegara hamda harbiy munosabatlarning yomonlashuvi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Turli nizolar va mojarolar natijasida siyosiy, iqtisodiy hamda diplomatik munosabatlar tobora murakkablashib borgan. Bu holat ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning zaiflashishiga olib kelgan. XIX asrning 40-yillaridan boshlab esa Rossiya O'rta Osiyoning ichki hududlariga kirib borishga intila boshladi. Bu siyosatda, avvalo, Qo'qon xonligi muhim strategik yo'nalish sifatida qaraldi. Rossiyaning mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy ta'sirini kuchaytirishga bo'lgan harakatlari keyinchalik O'rta Osiyo xonliklari bilan munosabatlarning yanada keskinlashishiga sabab bo'ldi. (5,84-85)

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Qo'qon xonligi XIX asrda Sharq va G'arbni bog'lovchi muhim savdo markazi bo'lib, Hindiston, Xitoy (Sharqiy Turkiston orqali) va Rossiya o'rtasidagi savdoda vositachilik rolini bajargan. Xonlik iqtisodiy jihatdan karvon yo'llariga tayanib rivojlangan bo'lsa-da, siyosiy ziddiyatlar, xavfsizlik muammolari va Rossiya imperiyasining bosimi uning savdo tizimini zaiflashtirgan. Natijada Qo'qon xonligi xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan bo'lsa ham, o'z iqtisodiy mustaqilligini to'liq saqlab qololmagan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. I. Kuzikulov. "Qo'qon xonligi tarixi"-Namangan. 2014, 83b.
2. P. P. Alimova. "Урта Осиё хонликларининг кушни Давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари"- Т. 2017, 145 б.
3. Ш. Қўлдашев. "Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар"-Тошкент "Академнашр" 2021, 252 б.
4. Ў. Косимов. "Қуқон хонлиги тарихи очерклари" –Т. 1994, 135 б.
5. З. Мадрахмодов. "Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи"-Тошкент "Yangi nashr". 2014, 173 б.